

INNOVATSION TA'LIM MUHITIDA GEOGRAFIYA FANLARINI O'QITISHNING TASHKILY MASALALARI VA ULARGA QO'YILADIGAN ZAMONAVIY TALABLAR

Andijon davlat pedagogika instituti,
Biologiya va geografiya o'qitish metodikasi kafedrası v.b.Dotsenti
Samiyev Uchkun Abdullajonovich

***Annotatsiya:** Ushbu maqolada geografiya fanlarini innovatsion ta'lim muhitida o'qitishning tashkiliy masalalari va zamonaviy talablar tahlil qilinadi. Shuningdek, ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan innovatsion pedagogik yondashuvlar va ularni amalga oshirish usullari bo'yicha takliflar keltiriladi.*

***Kalit so'zlar:** geografiya ta'limi, innovatsion muhit, masofaviy ta'lim, raqamli texnologiyalar, interfaol o'qitish, onlayn platformalar, didaktik yondashuv, ta'lim sifatini oshirish, zamonaviy talablar.*

ORGANIZATIONAL ISSUES OF TEACHING GEOGRAPHY IN AN INNOVATIVE EDUCATIONAL ENVIRONMENT AND MODERN REQUIREMENTS FOR THEM

Andijan State Pedagogical Institute,
associate professor of the department of methods of teaching biology and
geography Samiyev Uchkun Abdullajonovich

***Annotation:** This article analyzes the organizational issues and modern requirements of teaching geography in an innovative educational environment. Also, proposals are made on innovative pedagogical approaches aimed at improving the quality of education and methods of their implementation.*

***Key words:** geography education, innovative environment, distance education, digital technologies, interactive teaching, online platforms, didactic approach, improving the quality of education, modern requirements.*

KIRISH

Hozirgi globallashuv va raqamli innovatsiyalar davrida ta'lim sohasi tezkor rivojlanish jarayonida bo'lib, turli fanlarni o'qitishda zamonaviy pedagogik yondashuv va texnologiyalarning qo'llanilishi muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, geografiya fanlarini o'qitishda raqamli vositalar va innovatsion ta'lim muhiti ta'lim jarayonini optimallashtirishda asosiy omil sifatida e'tirof etilmoqda. Geografiya fani o'quvchilarga nafaqat geografik bilimlarni berish, balki ularning ilmiy tafakkurini rivojlantirish, ekologik ongini shakllantirish hamda zamonaviy global muammolarni anglashiga yordam beradi.

O'zbekistonda ta'lim tizimini rivojlantirish va modernizatsiyalash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etiladi. Prezident Shavkat

Mirziyoyevning 2017-yil 7-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-son Farmonida [1] ilmiy-tadqiqot va innovatsiya faoliyatini rag‘batlantirish, ta‘lim jarayoniga zamonaviy texnologiyalarni joriy etish alohida belgilangan. Ushbu strategiyaning 4.4-bandida oliy ta‘lim muassasalari va ilmiy institutlar huzurida ixtisoslashtirilgan ilmiy-eksperimental laboratoriyalar va texnoparklarni tashkil etish zarurligi ta‘kidlanadi. Bu esa ta‘limda innovatsion muhitni shakllantirish va raqamli texnologiyalarni keng qo‘llashga imkon yaratadi.

Innovatsion ta‘lim muhiti ayniqsa geografiya fanlarini o‘qitishda muhim ahamiyatga ega, chunki mazkur fan nafaqat tabiiy va ijtimoiy jarayonlarni o‘rgatadi, balki o‘quvchilarning ekologik ongini rivojlantiradi va ularda global muammolarni tushunish ko‘nikmalarini shakllantiradi. Ta‘limda yangi yondashuvlarni tatbiq etish orqali dars samaradorligini oshirish, o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasida interaktiv muloqotni rivojlantirish muhim omillardan biridir. Shu bilan birga, raqamli texnologiyalarni qo‘llash geografiya ta‘limini yanada qiziqarli va samarali tashkil etishga ko‘mak beradi [2; 76-78-b.].

Mazkur maqolada geografiya fanlarini o‘qitishda innovatsion yondashuvlar va zamonaviy talablar o‘rganiladi. Bundan tashqari, o‘qitish jarayonida ilg‘or texnologiyalarni qo‘llash, pedagoglarning malakasini oshirish, va tarbiya texnologiyalarini ta‘lim jarayoniga moslashtirish masalalariga ham e‘tibor qaratiladi. Innovatsion ta‘lim muhiti nafaqat o‘quvchilarning bilimni chuqurlashtirishga, balki ularning ijtimoiy faoliyatini shakllantirishga ham xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Innovatsion ta‘lim muhitida geografiya fanlarini o‘qitish, global miqyosda tadqiqotchilar tomonidan keng o‘rganilmoqda. Xususan, geografiya fanlarini o‘qitishda innovatsion yondashuvlar va zamonaviy talablar haqida ko‘plab tadqiqotlar olib borilgan. AQSh, Rossiya va O‘zbekiston tadqiqotchilari bu borada turli fikrlarni ilgari surishgan. Jumladan, AQShda olib borilgan tadqiqotlarda innovatsion texnologiyalarning joriy etilishi ta‘lim samaradorligini oshirishda muhim omil sifatida qayd etilgan. Xususan, Bednarz va Heffron [3; 7-11-b.] geografik axborot tizimlari (GAT) va boshqa interaktiv platformalardan foydalanish o‘quvchilar tanqidiy fikrlashini rivojlantirishini ta‘kidlaganlar. Ularning tadqiqotlari shuni ko‘rsatadiki, geografiyani o‘rganishda o‘quvchilarni global masalalarga jalb qilish raqamli resurslar orqali sezilarli darajada kuchayadi.

Budi Rahmah Panjaitan (Universitas Pendidikan Indonesia) raqamli ta‘lim vositalari nafaqat geografiyani o‘rganishda texnologiya integratsiyasini ta‘minlaydi, balki o‘qitish usullari va o‘quvchilarning tushunishiga bir qator muhim foyda keltiradi. Bundan tashqari, geografiya ta‘limida raqamli o‘quv vositalaridan

foydalanish ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Shu bilan birga, raqamli ta'lim vositalarini joriy etishda texnik resurslarning cheklanganligi, o'qituvchilar uchun qo'shimcha treningning yo'qligi, shuningdek, cheklangan vaqt, infratuzilma va foydalanish imkoniyati kabi bir qator to'siqlar hamon mavjud edi, ularni zudlik bilan hal qilish zarurligini ta'kidlaydi [4; 135-143-b.].

Rossiyalik olimlar ham geografiya fanlarini o'qitishda zamonaviy talablarni hisobga olish muhimligini qayd etmoqdalar. Masalan, Petrova Natalya [5; 30-37-b.] innovatsion ta'lim muhitida geografiyani o'qitishning muhim jihatlari sifatida muammoli ta'lim, tadqiqot metodlari va raqamli xaritalar bilan ishlashni ajratib ko'rsatgan. Ularning tadqiqotiga ko'ra, raqamli texnologiyalarni qo'llash o'quv jarayonini qiziqarli va samarali qilish bilan birga, bilimlarning amaliy ahamiyatini kuchaytiradi. Rossiyada maktab va oliy ta'lim muassasalarida raqamli resurslarni joriy etishning ijtimoiy va iqtisodiy jihatlari ham tahlil qilingan.

O'zbekistonlik tadqiqotchilar, jumladan, Abbos Utkirov va Pakize Sarametova, ta'limda innovatsion texnologiyalarni qo'llashning ahamiyatini ta'kidlaydilar. Utkirovning tadqiqotlari sun'iy intellekt va raqamli texnologiyalarning ta'lim jarayoniga ta'sirini o'rganishga qaratilgan bo'lib, bu texnologiyalar o'quvchilarning o'quv jarayoniga qiziqishini oshirishga yordam beradi [6; 363-367-b.]. Pakize Sarametova esa geografik ta'lim insoniyat uchun umumiy uy sifatida o'z mamlakati va sayyoramizni o'rganish uchun ishonchli asosdir. Aynan shu ta'lim zamonaviy dunyo va insoniyatning xilma-xilligi va birligi bilan birligini ongli ravishda tushunishni ta'minlaydi. O'quvchilar o'zlarini o'rab turgan moddiy, ma'naviy va madaniy qadriyatlarni va insonning kosmosda mavjud bo'lishining ma'nosini to'g'ri tushunishlari uchun juda katta geografik bilimlarni to'plashi zarur. O'quv jarayonini yangi pedagogik texnologiyalardan foydalangan holda tashkil etishda maktab o'quvchilari uchun zamonaviy o'quv qo'llanmalariga katta ahamiyat beriladi. Sinfda pedagogik texnologiyalarni qo'llagan holda, yaxshi natijalarga erishib, geografiyani o'qitish jarayoniga yangi nuqtai nazardan qarash mumkinligiga amin bo'la olamiz deya ta'kidlaydi [7; 995-998-b.].

Umuman olganda, AQSh, Rossiya va O'zbekiston tadqiqotchilarining fikrlari geografiya fanlarini o'qitishda innovatsion yondashuvlarni qo'llashning ahamiyatini ko'rsatadi. Mazkur mamlakatlar tajribasi o'quvchilarni faollashtirish, ularda tanqidiy va amaliy ko'nikmalarni shakllantirishda raqamli texnologiyalarning ijobiy samara berishini ko'rsatadi. Shuningdek, raqamli ta'lim jarayonini pedagogik yondashuvlar bilan uyg'unlashtirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Har uch mamlakat tajribasidan kelib chiqib, geografiya fanlarini o'qitish jarayonini yanada interaktiv va ijodiy qilish zamonaviy ta'lim tizimining ajralmas qismi ekanini ko'rish mumkin. Bu

yondashuvlar o'quvchilarning bilim olish jarayonini yanada samarali va qiziqarli qilishga yordam beradi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, iqtisodiyotning globallasuvi va texnologik taraqqiyot sharoitida ta'lim tizimida ham sezilarli o'zgarishlar sodir bo'lmoqda. Innovatsion ta'lim muhiti bugungi kunda fanlarni o'qitishda yangi metod va yondashuvlarni qo'llashni talab etmoqda. Jumladan, geografiya fanlarini zamonaviy ta'lim texnologiyalari asosida o'qitish ushbu fan mazmunini yanada qiziqarli, interaktiv va amaliy qilishga xizmat qiladi.

Raqamli texnologiyalar va innovatsion yondashuvlar ta'lim tizimida yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Geografiya fanlarini o'qitishda zamonaviy ta'lim muhitining ahamiyati katta. Ta'lim jarayonida innovatsion metodlar va raqamli vositalardan foydalanish, o'quvchilarning geografik bilimlarini yanada chuqurlashtirishga yordam beradi.

I. Tashkiliy masalalar:

1. Dars rejalashtirish va tashkil etish. Innovatsion ta'lim muhitida darslarni rejalashtirishda interfaol metodlardan foydalanish zarur. Darslar interaktiv platformalarda o'tkazilishi, o'quvchilarni guruhlariga bo'lish va muhokamalar o'tkazish orqali bilim olish jarayoni yanada jonlantirilishi mumkin.

2. O'quv materiallari va resurslar. Zamonaviy o'quv materiallari, raqamli xaritalar, simulyatsiyalar va onlayn resurslar geografiya fanini o'rganishda muhim rol o'ynaydi. O'qituvchilar ushbu materiallarni to'g'ri tanlab, o'quvchilarning ehtiyojlariga mos ravishda taqdim etishlari kerak.


3. O'qituvchilarni tayyorlash. O'qituvchilarning raqamli texnologiyalar va innovatsion metodlardan foydalanish ko'nikmalarini oshirish zarur. Ta'lim muassasalari o'qituvchilarni muntazam ravishda seminarlar va treninglar orqali tayyorlashi lozim.

II. Zamonaviy talablar.

1. Interfaol ta'lim. O'quvchilarni dars jarayonida faol ishtirok etishga undovchi metodlar joriy etilishi kerak. Masalan, Google Earth yoki ArcGIS kabi dasturlar yordamida o'quvchilar o'zlari qiziqqan geografik hududlarni o'rganishlari mumkin.

2. Teng ta'lim imkoniyatlari. Innovatsion ta'lim muhitida barcha o'quvchilarga teng imkoniyatlar yaratish muhimdir. Chekka hududlarda yashovchi o'quvchilar uchun masofaviy ta'lim imkoniyatlarini kengaytirish, ularga sifatli ta'lim olish imkoniyatini taqdim etadi.

3. Tizimli baholash. O'quvchilarning bilimlarini baholashda zamonaviy baholash metodlaridan foydalanish zarur. Bu, o'quvchilarning o'z bilimlarini mustaqil ravishda baholashlariga va o'z-o'zini rivojlantirishlariga yordam beradi. (1-rasm).



1-rasm. Geografiya fanlarini o'qitishning tashkiliy masalalari va ularga qo'yiladigan zamonaviy talablar.

Innovatsion ta'lim muhitida geografiya fanlarini o'qitish jarayoni, zamonaviy talablar va tashkiliy masalalar bilan chambarchas bog'liq. O'qituvchilar, o'quvchilar va ta'lim muassasalari o'rtasidagi hamkorlik, ta'lim jarayonining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Ushbu jarayonda raqamli texnologiyalar va innovatsion yondashuvlarning keng qo'llanilishi, o'quvchilarning geografik bilimlarini yanada chuqurlashtirishga imkon beradi.

XULOSA

Innovatsion ta'lim muhitida geografiya fanlarini o'qitish, zamonaviy pedagogik yondashuvlar va metodlarni qo'llash orqali ta'lim jarayonini samarali tashkil etishni talab etadi. O'qitish metodologiyasi interfaol va texnologik yondashuvlarni o'z ichiga olishi, o'quvchilarning faol ishtirokini ta'minlashi kerak. O'quv dasturlarini yangilash va ularni boshqa fanlar bilan integratsiyalashish, geografik bilimlarni chuqurroq o'rganishga yordam beradi. O'qituvchilarni kasbiy rivojlantirish va tajriba almashish orqali ularning malakasini oshirish muhim ahamiyatga ega. O'quv muhitini zamonaviy texnologiyalar bilan boyitish va geografik bilimlarni real hayot bilan bog'lash, o'quvchilarning motivatsiyasini oshiradi. Natijada, innovatsion ta'lim

muhitida geografiya fanlarini o‘qitish, nafaqat bilimlarni oshirish, balki o‘quvchilarning shaxsiy rivojlanishiga ham hissa qo‘shadi, ta’lim sifatini yangi darajaga olib chiqadi. Bu jarayon, kelajak avlodni zamonaviy bilimlar bilan ta’minlashga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni / O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari milliy bazasi: <https://lex.uz/docs/-3107036>.

2. Ummatovich, Y.H. (2023). Innovatsion ta’lim muhitini tashkil etish va ta’lim-tarbiya jarayonida yangi zamonaviy texnologiyalarni ishlab chiqish. *Journal Of Innovations In Scientific And Educational Research*, 6(6), 76-78.

3. Bednarz, S., Heffron, S., & Huynh, N. (2013). A road map for 21st century geography education. Washington, DC: Association of American Geographers.

4. Panjaitan, B. R., Ningrum, E., & Waluya, B. (2023). Digital Learning Tools in Geography Education: A Systematic Literature Review. *The Eurasia Proceedings of Educational and Social Sciences*, 33, 135-143.

5. Петрова Наталья Николаевна (2019). География в школе: проблемы и перспективы. *Вестник Московского университета. Серия 20. Педагогическое образование*, (3), 30-37.

6. Utkirov, A. (2024). Artificial Intelligence Impact on Higher Education Quality and Efficiency.

7. Pakize Seitxalilovna Sarametova (2021). Geografiya fanini o‘qitishda zamonaviy va innovatsion ta’lim muhitini tashkil etish. *Scientific progress*, 2 (3), 995-998.